




XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XORAZM VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2023- YIL YANVAR-SENTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 62-224-64-99
www.xorazmstat.uz

Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalaridan 15 143,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


(2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 120 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan 4 083 tasi kichik biznes subyektlaridir. Yangi tashkil qilingan korxonalar soni 896 ta va barchasi kichik biznes hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Jami faoliyat yuritayotgan (1- oktabr holatiga ko'ra)




Jami yangi tashkil etilgan (1- oktabr holatiga ko'ra)




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda jami sanoat ishlab chiqarishi 15 143,4 mlrd. so'mni, shundan 2,8 mlrd. so'm tog'-kon sanoatiga, 14 617,0 mlrd. so'm ishlab chiqarish sanoatiga, 432,9 mlrd. so'm elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatiga, 90,8 mlrd. so'm suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatiga to'g'ri keldi.



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 14 617,0 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,5 % ni tashkil etdi.





Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 174,8 %ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 5,7 %ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 7,1 %ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimining 5,1 %ga o'sishi kuzatildi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalaridan tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,8 mlrd. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,02 % ga to'g'ri keldi.




Xorazm viloyatining ishlab chiqaradigan sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14 617,0 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,5 % ini tashkil etdi.




2023- yil yanvar-sentabr oylarini o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,14 % ni (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,11 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 39,6 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 41,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,1 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 4,0 %), quyi texnologiyali 51,6 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 51,0 %) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 42,3 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,3 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,5 % (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,8 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,4 %)ni, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 1,6 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,8 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 59 003,5 tonna paxta tolasi (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 25,1 % ga oshgan), 98 519,0 tonna paxta chigiti (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 10,8 % ga oshgan), 24 038,4 tonna paxtadan yigirilgan ip (6,3 % kamaygan), 198 000,7 tonna shakar (4,0 % kamaygan), 4 604,9 tonna o'simlik yog'i (47,9 % kamaygan), 5 832,2 tonna paxta linti (11,1 % oshgan), 545,2 ming litr uzum vinosi (42,2 % oshgan), 97,3 ming litr aroq (93,9 % oshgan) hamda 35 325,8 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (46,4 % kamaygan) ishlab chiqarildi.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
O'simlik yog'i, tonna	7 411,7	4 604,9	- 2 806,8
Shakar, tonna	206 302,0	198 000,7	- 8 301,3
Gilam, ming kv.m	1 150,0	1 942,0	792,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	65 962,0	35 325,8	- 30 636,2
Paxta tolasi, tonna	47 178,1	59 003,5	11 825,4

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Yengil avtomobillar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida)


Yengil avtomobillar – umumiy yoki maxsus yengil avtomobillarga bo‘linib, 2 kishidan 8 kishigacha mo‘ljallangan transport vositasi.

Viloyatimizda 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo‘yicha jami 60 052 dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi. Yengil avtomobillari ishlab chiqarish o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 14,0 % ga oshgani kuzatildi.



Maxsus yengil avtomobillar (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Viloyatda 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo‘yicha jami 14 975 dona maxsus yengil avtomobil ishlab chiqarilib, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,1 % ga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 39,7 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 97,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5 800,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 30,3 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 409,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 21,8 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,4 % ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 3 187,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,0 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 163,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 310,1 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 19,9 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,4 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 2 907,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 89,0 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 85,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 113,3 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmi 76,7 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Elektr uskunalari ishlab chiqarish

Elektr uskunalari ishlab chiqarish – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo‘lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,5 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 191,7 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 67,5 mlrd. so‘m ekanini kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 432,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,86 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,1 %ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	384,2	1078,0	693,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	45,2	79,2	34,0
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	1 368 491,0	973 253,0	- 395 238,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 90,8 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % iga) to'g'ri keldi.




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 6,9 %ga oshganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,2 %ga kamayganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 1,2 %ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	4 595 470,0	4 449 184,0	-146 286,0
Tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, ming so'm	101 241 176,0	109 592 468,0	8 351 292,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	15 587 581,0	15 780 115,0	192 534,0

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 647,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 17,5 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 16,2 % ni tashkil etgan.



Isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish


Isteʼmol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy isteʼmol uchun yoki foyda olish bilan bogʻliq boʻlmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 9 559,1 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,0 %ga, uning jami sanoatdagi ulushi 63,1 % ga toʻgʻri keldi.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2023- yil yanvar-sentabr oylarida 7 683,5 ming so'm bo'lib (2022- yil yanvar-sentabr oylarida 6 786,6 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,9 % o'sishni ko'rsatmoqda.





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2023- yil yanvar-sentabr oylarida 4 850,1 ming so'm bo'lgani holda, (2022- yil yanvar-sentabr oylarida 4 308,8 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,2 % o'sishni ko'rsatmoqda.



Nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 5 271,9 mlrd so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,8 % ni tashkil etdi. Nooziq-ovqat mahsulotlarini jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 55,2 %ni tashkil etadi.





Nooziq-ovqat mahsulotlarini jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi



Oziq-ovqat mahsulotlarini jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 4 275,6 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,3 % ni tashkil qildi. Oziq-ovqat mahsulotlarini jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,8 %ni tashkil etadi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida 2023- yil yanvar-sentabr oylarida kiritilgan 99 ta loyiha bo'yicha 871,9 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahsulotlarni sotish hajmi 320,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 5,5 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 108 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

